

# Navoiy viloyat statistika boshqarmasi



## 2018 yil yanvar-mart oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **5252,8 mlrd.so'mni**, o'sish **1,4 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **-101,2 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **9,2 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **11,3 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-mart oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 5252,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 65,0 % tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 28,6 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,3 % tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1503,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 28,6 % ni tashkil etdi.

### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3412,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 65,0 % ni tashkil etdi.



### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 295,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6 % ni) tashkil etdi.

### ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.




### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 482,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 101,2 %, jami sanoatdagi ulushi esa 9,2 % ni tashkil etdi.

### 2018 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




**Yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,  
% da**



**Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Navoiy shahri (viloytda sanoat ishlab chiqarish hajmning 83,6 % ulushini), Karmana (7,6 %), Qiziltepa (2,9 %), Xatirchi (2,0 %), Navbahor (1,7 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlarning  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**



Shu bilan birga eng kam ulush Zarafshon shahri (0,8 %), Nurota (0,7 %), Uchquduq (0,3 %), Konimex (0,2 %) va Tomdi (0,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Zarafshon shahri (2017 yilning yanvar-mart oylarida nisbatan 107,8 % ga), Qiziltepa (110,2 % ga), Navbahor (109,3 % ga), Karmana (106,2 % ga), Xatirchi (100,9 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


***2018 yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)***



### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**


Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 11,3 % tashkil etmoqda.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi Navoiy shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 3,0 %), Karmana (35,5 %), Navbahor (56,2 %) ,Xatirchi (62,7 %),Qiziltepa (67,0 %), Tomdi (95,3 %), Konimex (96,6 %), Nurota (99,2 %), Uchquduq (99,8 %), tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (71,1%)kuzatildi



Bugungi kunda viloyatimizda 1585 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 507 tasi Navoiy shahrida, 280 tasi Karmana, 223 tasi Nurota, 183 tasi Qiziltepa, 110 tasi Xatirchi, 83 tasi Navbahor, 58 tasi Uchquduq, 38 tasi Tomdi, 26 tasi Konimex tumanlarida va 77 tasi Zarafshon shahrida joylashgan.

**2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni**



Joriy yilning yanvar-mart oylari davomida viloyatimizda 115 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 21,7 % Navoiy shahriga to'g'ri keladi.